

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–may holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **723** taga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **4,7 %** foizni tashkil etdi
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **511** taga oshgan.

2018 yilning yanvar-may oyida Namangan viloyatida 1544 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 % ga oshgan hamda ularning soni 844 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida jori yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 723 ta (1,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21767 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (39,2%), Chust (7,9%), Namangan tumani (7,2%) va To'raqo'rg'on (6,0%) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Namangan viloyati	21767	100,0	20734	100
Namangan shaxar	8582	39,4	8118	39,2
Mingbuloq tumani	865	4,0	853	4,1
Kosonsoy tumani	1244	5,7	1157	5,6
Namangan tumani	1566	7,2	1488	7,2
Norin tumani	843	3,9	820	4,0
Pop tumani	1157	5,3	1084	5,2
To'raq'org'on tumani	1316	6,0	1238	6,0
Uychi tumani	1237	5,7	1224	5,9
Uchq'org'on tumani	1106	5,1	1088	5,2
Chortoq tumani	1065	4,9	1017	4,9
Chust timani	1743	8,0	1647	7,9
Yangiq'org'on tumani	1043	4,8	1000	4,8


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,3 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,9 f.p. kamaygan


2018 yil yanvar-may holatiga 1544 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Namangan shaxrida (519 ta), Chust (128 ta), Uychi (111 ta), Mingbuloq (106 ta), Uchq'org'on (101 ta), Namangan tumani (96 ta), To'rq'org'on (95 ta), Norin (86 ta), Kosonsoy (79 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam hamda Chortoq (77 ta), Pop (77 ta), Yangiq'org'on (69 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (438 ta), boshqa turlarda (382 ta), savdoda (316 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (139 ta) va qurilishda (103 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (65 ta), yashash va ovqatlanish (46 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta) va axborot va aloqada (23 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p), savdoda (-1,5 f.p), qurilishda (-0,2 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,2 f.p.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (-0,1 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,8 f.p.), tashish va saqlashda (+0,3 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,8 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktida

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,2	-1,0
Savdo	23,6	25,1	-1,5
Axborot va aloqa	1,5	1,5	
Sanoat	19,8	18,0	1,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,2	7,4	-0,2
Qurilish	7,3	7,5	-0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,9	4,0	-0,1
Tashish va saqlash	3,7	3,4	0,3
Boshqa turlari	30,7	29,9	0,8

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 20734 dan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5803 ta, oilaviy korxonalar – 285 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–9937 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari–27 tani va boshqalar 4682 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, bir likda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 110 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga yoki 1,2 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 76 tasi qo'shma korxonalar, 34 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, bir likda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 118 tani tashkil etib ular ning asosiy qismi Namangan shahar 54 ta (45.8%), Uychi va Pop tumanida 9 tadan (7.6%), Namangan va Chust tumanlarida 7 tadan (5.9%), Chortoq tumani 8 ta (6.8 %), Kosonsoy, To'raqo'rg'on, tumanlarida 6 ta (5.1%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Yangiqo'rg'on tumani 5 ta (4.2 %), Norin, Uchqo'rg'on, tumanlarida 3 ta (2.5%), 1 ta (0.8%) Mingbuloq tumani hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 81 ta (73,6%), savdoda 11 ta (10,0%), boshqa turlarida esa 9 ta (8,2%) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (4,5%), tashish va saqlashda 1 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 9 tani tashkil qilgan. Bu korxonalar Namangan shahar, Namangan va Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlarida ro'yhatdan o'tganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16472 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 1,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6933 tasi (0,4 %) Namangan shahriga, 1311 tasi (0,1 %) Chust tumaniga, 1255 tasi (0,1 %) Namangan tumaniga, 950 tasi (0,1 %) To'raqo'rg'on hamda 959 tasi (0,1 %) Uychi tumanlari hissariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16472 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4868 tasi (29,6%)—savdoda, 4069 tasi (24,7 %) - sanoatda, 1509 tasi (9,2 %) - qurilishda, 1483 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 815 tasi (4,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 750 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 298 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 366 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2314 tasi (14,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 1235 taga kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 0,9 foizga kam. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida (436 ta), Chust (100 ta), Uychi (93 ta) va To'raqo'rg'on tumanlarida (80 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchqo'rg'on (72 ta), Norin (70 ta), Mingbuloq (69 ta), Pop (57 ta) hamda Yangiyo'rg'on (57 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (438 ta), savdoda (316 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (138 ta) va qurilishda (103 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (46 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta) hamda axborot va aloqada (23 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,6 % savdoda, 19,8 % sanoatda, 7,3 % qurilishda, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 3,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 iyun holatiga 290 tani tashkil etib, ulardan 285 tasi yoki 98,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'ttacha 1,4 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 47,4 % yoki 135 tasi sanoat, 16,5 % yoki 47 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,3 % yoki 38 tasi savdo, 9,1 % yoki 26 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 2 tasi qurilish, 1,8 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 1,8 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,4 % yoki 27 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: M.Izzatillayev
(0369) 227-84-96